

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

DA ZHENXIN (达震鑫)

**O‘ZBEKCHA VA XIToyCHA MAQOLLARNING LINGVISTIK
TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Philological
sciences**

Da Zhenxin O‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiqi.....	3
Da Zhenxin Linguistic study of Uzbek and Chinese proverbs.....	24
Da Zhenxin Лингвистическое исследование узбекских и китайских пословиц.....	44
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati List of published works	
Список опубликованных работ	48

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD Fil/3144 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Hashimova Sabohat Abdullayevna**
filologiya fanlari doktori, dotsent

Jo‘rayeva Bibish Muhsinovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuul.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil “_____” _____ dagi raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.S.Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

N.Z.Normurodova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon tilshunosligida muayyan xalqning milliy-madaniy, tarixiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, hayotiy tajribasining yorqin in'ikiosi bo'lgan maqollarni lingvistik jihatdan tadqiq qilish, ya'ni ularning lingvistik xususiyatlarini yoritish, shakllanish manbalari, etimologiyasini ochib berish, maqollarni xalq hayoti, dunyoqarashi, an'analari, urf-odatlar bilan bog'liqligini ko'rsatish, bu boradagi ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish, qardosh va noqardosh xalqlarda ko'p asrlar davomida shakllangan va to'plangan maqollarni qiyoslash/chog'ishtirish masalalariga katta ahamiyat berilmoqda. Shunga ko'ra maqollar nafaqat adabiyotshunoslik (folklorshunoslik) nuqtayi nazaridan, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan: ularning struktur-semantik, milliy-mental, kognitiv va universal xususiyatlarini aniqlash yuzasidan ham tekshirildi va tekshirib kelinmoqda.

Dunyodagi tillarni ilmiy tadqiq qilish markazlarida, oliy ta'lim muassasalarida paremiologiya, xususan, qiyosiy paremiologiya, qiyosiy lingvokulturologiyaga oid keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda qardosh va noqardosh tilardagi maqollarning farqli va o'xshash xususiyatlarini o'rganish, ularni qiyosiy-tipologik asosda tahlil qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, o'zbek va xitoy tillari nihoyatda maqollarga boy. O'zbek va xitoy xalqi milliy tafakkur va fiziologik tuzilishi o'rtasidagi umumiy xususiyatlar tufayli xitoy va o'zbek maqollarida, odamlarning ularni tushunishi o'rtasida juda ko'p o'xshashliklar mavjud. Masalan: o'zbek va xitoy maqollarida qofiya va uyg'unlikka ahamiyat beriladi. Maqollarni tuzishda ko'proq qo'shma gap qolipidagi gaplardan foydalaniladi, metafora, personifikatsiya va mubolag'a kabi stilistik figuralar mavjud. Xitoy maqollari Xan xalqining yashash odatlari, yashash muhiti va shu bilan bog'liq qadriyatlari va fikrlash tarzini aks ettiradi. O'zbek tili, madaniyati ham uzoq tarixga ega. O'zbek maqollari turkiy xalqlarning yashash odatlari, muhiti va shu bilan bog'liq qadriyatlarni va fikrlash tarzini o'zida aks ettiradi. Biroq ikki tomon madaniy an'analari va til xususiyatlarining farqliligi tufayli xitoy va o'zbek maqollari shakli va semantikasidagi juda ko'p farqlarni ham aniqlash mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida filologiya fanini rivojlantirish, davlat tilining nufuzini oshirish borasida salmoqli ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmonida: "Oliy ta'lim tizimida o'zbek tili ilmiy maktablarining zamonaviy metodlarini o'rganishni yo'lga qo'yish, tilning rivojlanish istiqbollari bilan bog'liq ilmiy muammolarni aniqlash, tadqiq etish"¹ kabi vazifalar belgilanganiki, mazkur ustuvor vazifalarni ijro qilishda o'zbek tilini boshqa tillar bilan qiyoslashga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish, ularning amaliy natijalarini ta'lim jarayoniga tatbiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги "Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6084-сонли Фармони // Ўзбекистон Қонун ҳужжатлари тўплами. 06/20/6084/1398.

Xususan, bu borada jahon paremiologiyasida, jumladan, o‘zbek va xitoy tilshunosligida maqollarni o‘rganishda, qiyoslashda, ularning lingvomadaniy mohiyatini ochib berishda, fonetik, semantik, grammatik xususiyatlarini har ikki tilning sintaktik qurilishi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishda, qiyoslanayotgan tillarda maqollarning universiyaliyalarini aniqlashda dolzarb mavqega ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish sifatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 610-son Qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Maqollarning qiyosiy-tipologik xususiyatlari I.Begmurodov, R.A.Latipova, I.K.Mirzayev, Z.Yusupova, Y.Osheva, L.Babitova, O.Igbolov, P.Bakirov, G.Ergasheva, O.Uralova, M.Temirova, R.U.Majidova, Z.R.Narmuratov kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan ².

² Begmurodov I. Узбекско-казахские фольклорные связи: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 21 с.; Латыпова Р.А. Нормы речевого поведения в зеркале английской и башкирской паремии: Автореф. дис... канд. филол. наук.– Уфа, 2003.– 17 с.; Мирзаев И.К., Нарзикулов А. Французча мақол ва маталларнинг ўзбек тилидаги муқобиллари. – Самарқанд: СамДУ, 1981. – 67 б.; Юсупова З.А. Языковые аспекты реализации противопоставления в паремии (на материале французских, английских и русских пословиц): Дис... канд. филол. наук. – Уфа: БГУ, 2005. – 146 с.; Ошева Е.А. Лингвокультурная специфика паремиологического пространства (на материале русского и английского языков): Автореф. дис... канд. филол. наук. – Пермь, 2013. – 21 с.; Бабитова Л.А. Английские и кабардино-черкесские пословицы и поговорки в прагмалингвокультурологическом аспекте: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2013. – 26 с.; Игболов О.Ш. Лексико-семантический анализ особенностей пословиц и поговорок в таджикском и английском языках (на материале “Маснавий маънави” Джалолуддина Руми): Дис... канд. филол. наук. – Душанбе, 2017. – 166 с.; Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 287 с.; Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б. Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида “оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. – Самарқанд, 2021. – 144 б.; Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018. – 166 б.; Маджидова Р. Антропоцентриқ мақолларнинг аксиологик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида). Филол. фан. доктори (DSc)... дисс. автореф. – Фарғона, 2020.; Нормуратов З.Р. Инглиз ва ўзбек тилларида “таълим, илм” концептларига оид паремаларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. -Термиз, 2022. -51 б.

Shuningdek, o'zbekcha maqollarning noqardosh tillar bilan chog'ishtirilgan tahlili yuzasidan bir nechta ilmiy maqolalar ham e'lon qilingan, e'lon qilinmoqda³.

O'zbek tilshunoslari X.Abdurahmonov, M.Sadriddinova, B.Jo'rayeva, D.A.Tosheva, D.Turdaliyeva, Sh.Sh.Qalandarov, I.M.Mirzaaliyev, G.Komilovalar o'zbekcha maqollarning shakllanish asoslari, leksik, leksik-stilistik, grammatik tahliliga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan⁴.

Xitoy tilshunosligida ham xitoycha maqollar turli aspektlarda tadqiq qilingan, 1920-yillardan boshlab Guo Shaoyu (郭绍虞), Du Tongli (杜同力), Ming Enpu (明恩浦) (AQSh), Cao Boxan (曹伯韩), Chen Yide (陈以德), Vang Guodong (王国栋), Van Shunde (王顺德), Xue Chengzhi (薛诚之) va boshqalarning tadqiqotlarida maqollarni boshqa yondosh hodisalar, xususan, aforizmlar, hikmatli so'zlar bilan solishtirish, ular orasidagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsatishga ahamiyat berilgan⁵.

1949-yillardan boshlab Ven Duanzheng (温端政), Vu Zhankun (武占坤), Ma Guofan (马国凡), Vang Yi (王毅), Vang Qin (王勤), Sun Weizhang

³ Жумабоева Ж., Абдуллаева Н. Градуоним компонентли ўзбек халқ мақоллари ва уларнинг инглиз тилидаги муқобиллари // Хорижий филология. №4, 2017. – Б.30-33; Абдуллаева Н. Ўзбек ва инглиз халқ мақолларида макроградуонимия // An international scientific and practical online conference on the topic tsul international conference on teaching foreign languages (tsul icon - flt). Foreign languages department. – Tashkent, 2021; Мадалов Н.Э. Ўзбек тилшунослигида мақолларнинг лингвистик тадқиқи // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 11 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1; Мадалов Н.Э. Инглиз ва ўзбек тилларидаги оддий табиат ҳодисалари билан боғлиқ мақолларнинг чоғиштирма таҳлили // Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 1 | 2023 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1. va b.

⁴ Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент: АН УзССР, 1964. – 18 с.; Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 18 с.; Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик лугати. – Тошкент: Фан, 2006; Жўраева Б. Мақолларнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2007. – 66 б.; Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – 224 б.; Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2002.; Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док... (DSc) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 73 б.; Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. фалс. док (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Турдалиева Д.Т. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фанлари фалсафа док.(PhD)... дисс. – Фарғона, 2018. – 144 б.; Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси. Фил. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019; Мирзаалиев И.М. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси (“Девону лугати-т-турк” материали мисолида). Филол. фан. фалс. док.(PhD)...дисс. автореф. – Тошкент, 2020. Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Филол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2022.– 50 б.

⁵ 郭绍虞, 谚语的研究, 商务印书馆, 北京, 1925年6月; 杜同力《关于谚语的报告和说明, 商务印书馆, 北京, 1925年; (Guo Shaoyu. Maqollar bo'yicha tadqiqotlar. – Pekin: Tijorat matbuoti, 1925); 杜同力《关于谚语的报告和说明, 商务印书馆, 北京, 1925年; (Du Tongli. Maqollar haqida ma'ruza va tushuntirish. – Pekin: Tijorat matbuoti, 1925); 明恩溥, 汉语谚语熟语集, 商务印书馆, 北京, 1902年; (Ming Enpu. Xitoy maqollari va idiomalari to'plami. – Pekin: Tijorat matbuoti, 1925); 曹伯韩, 谈谚语, 人民文学出版社, 北京, 1927年; (Cao Boxan. Maqollar haqida. – Pekin: Xalq adabiyoti nashriyoti, 1927); 陈以德, 从谚语的搜集整理谈到口头语的语汇, 商务印书馆, 北京, 1933年 (Chen Yide. Maqollar to'plamidan og'zaki so'zlarning lug'atiga qadar. – Pekin: Tijorat matbuoti, 1933); 王国栋《谚语的搜集和整理, 商务印书馆, 北京, 1935年 (Vang Guodong. To'plam va maqollarni tartibga solish. – Pekin: Tijorat matbuoti, 1935); 王顺德, 北夏农谚研究, 商务印书馆, 北京, 1935年 (Van Shunde. Shimoliy Sya qishloq xo'jaligi maqollari bo'yicha tadqiqotlar. – Pekin: Tijorat matbuoti, 1935); 薛诚之, 谚语的探讨, 商务印书馆, 北京, 1936年 (Xue Chengzhi. Hikmatlar muhokamasi. – Pekin: Tijorat matbuoti, 1936).

(孙维张) va boshqalar xitoy maqollarini tizimli jamlashgan va tahlil qilishgan. Bu davrda maqollarni o'rganishda ularning o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi va mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, maqollarga o'ziga xos "tanish so'z" sifatida qaralib, tahlil va tadqiqot ishlarini olib borishda zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazari va usullaridan foydalanilgan⁶.

1990-yillardan boshlab Chjan Xui (张辉), Kou Fuming (寇福明), Van Shaoxua (汪少华), Xe Syuvey (何学威), Chen Suping (陈素萍), Luo Shenghao (罗圣豪), Shen Xuayxing (沈怀兴), Jiang Yuanyuan (江源源), Xou Pu (侯璞), Yu Fumin (郁福敏), Guo Shanlian (郭珊莲), Jiang Lei (蒋磊) va boshqalar xitoy maqollari va chet tili maqollarini qiyosiy o'rganishni amalga oshirishgan. Bu davrda maqollarning tabiati va ularni pragmatik tarzda o'rganish, jumladan, maqollarning ijtimoiy, pragmatik va ritorik vazifalarini o'rganishga, ularning muhim xususiyatlari va me'yorlanishiga oid tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratildi. Shu vaqtdan boshlab maqollarning semantikasini o'rganish olimlarning e'tiborini torta boshladi⁷.

Ko'rinadiki, o'zbekcha maqollar O'zbekistondagi tilshunoslar tomonidan ikki aspektda tadqiq qilingan, ya'ni maqollar sof o'zbek tili nuqtayi nazaridan tahlil qilingan va ular boshqa qardosh (qozoq, qirg'iz), noqardosh (asosan, ingliz tili) tillardagi maqollar bilan qiyoslangan/chog'ishtirilgan. Ammo shu vaqtgacha Xitoyda ham, O'zbekistonda ham maqollarning lingvistik jihatlari, ularning semantik-struktur, milliy-madaniy va universal jihatlari chog'ishtirilmagan. Shunga ko'ra bizning mazkur ishimiz bu sohadagi dastlabki dissertatsiyadir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universitetidagi qiyosiy-tipologik

⁶ 温端政, 中国谚语大全(上下), 上海辞书出版社, 上海, 2000年 (Ven Duanzheng. Xitoy maqollari entsiklopediyasi. – Shanxay: Shanxay lug'at nashriyoti, 2000); 武占坤 马国凡, 谚语, 内蒙古出版社, 1983年 (Vu Zhankun, Ma Guofan. Hikmatlar. – Ulanbator, 1983) 王毅, 略论中国谚语, 商务印书馆, 北京, 1961年; (Van Yi. Xitoy maqollari haqida qisqacha munozara. – Pekin, 1961).

⁷ 张辉, 熟语及其理解的认知语义学研究, 军事谊文出版, 北京, 2003年 (Chjan Xui. Idiomalarning kognitiv semantikasi va ularni tushunish bo'yicha tadqiqotlar. – Pekin: Military Yiwen nashriyoti, 2003); 寇福明, 汉英谚语对比研究, 中央民族大学出版社, 北京, 2007年 (Kou Fuming. Xitoy va ingliz maqollarini qiyosiy o'rganish. – Pekin: Minzu Xitoy universiteti nashriyoti, 2007); 汪少华, 谚语·构架·认知, 外语与外语教学出版社, 上海, 2008年 (Vang Shaoxua. Maqollar. – Shanxay: Frame Tan olish bilimlari, chet tillari va chet tillarini o'qitish nashriyoti, 2008); 何学威、陈素萍, 论谚语的形式美, 娄底师专学报, 1995年 (He Xuewei va Chen Suping. Maqollarning rasmiy go'zalligi haqida // Loudi o'qituvchilar kolleji jurnali, 1995); 罗圣豪, 论汉语谚语, 四川大学学报, 重庆, 2003年 (Luo Shenghao. Xitoy maqollari haqida // Sichuan universiteti jurnali. – Chongqing, 2003). 盛怀兴, 汉语谚语中意合法的运用, 语言教学与研究, 北京, 2004年 (Shen Huaixing. Xitoy maqollarining italyan tilida qo'llanilishi, til o'rgatish va tadqiqot. – Pekin, 2004); 江源源, 从系统功能角度解读汉语谚语, 成都师范学院学报, 成都, 2011年; (Jiang Yuanyuan. Xitoy maqollarini tizim funksiyasi nuqtai nazaridan izohlash // Chengdu Normal universiteti jurnali. – Chengdu, 2011); 侯璞, 谚语的语篇功能, 商务印书馆, 北京, 2012年; (Xou Pu. Maqollarning nutq funksiyalari. – Pekin: Business The Press, 2012); 郁福敏、郭珊莲, 英汉习语对比, 上海交通大学出版社, 1999年 (Yu Fumin, Guo Shanlian. Ingliz va xitoy iboralarini taqqoslash. – Shanxay: Shanxay Jiaotong universiteti nashriyoti, 1999); 蒋磊, 英汉习语的文化观照与对比, 武汉大学出版社, 2000年; (Jiang Lei. Ingliz va xitoy iboralarining madaniy istiqboli va taqqoslanishi. – Wuhan: Wuhan universiteti nashriyoti, 2000).

tadqiqotlar, xususan, O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’limi kafedrasining “Qiyosiy lingvistika va madaniyatlararo aloqalar” deb nomlangan istiqbolli ilmiy tadqiqotlar mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi o‘zbekcha va xitoycha maqollarning chog‘ishtirma lingvistik jihatlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

o‘zbekcha va xitoycha maqollarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

o‘zbekcha va xitoycha maqollarni lingvistik jihatdan taqiq qilish yo‘nalishlarini tahlil qilish;

o‘zbekcha va xitoycha maqollarining fonetik, semantik, grammatik xususiyatlarini aniqlash, chog‘ishtirish natijasida ularning fonetik, semantik, struktur, grammatik o‘xshash hamda farqli tomonlarini ochib berish;

o‘zbekcha va xitoycha maqollarning milliy-madaniy xususiyatlarini chog‘ishtirish, ular o‘rtasidagi lisoniy-madaniy nomuvofiqliklarni yoritish;

o‘zbekcha va xitoycha maqollarning universal xususiyatlarini maqollardagi semantik va shakliy o‘xshashliklar orqali yoritib berish va b.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va xitoy tillaridagi maqollar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va xitoy tillaridagi maqollarning lisoniy mavqeyi, fonetik, semantik-strukturaviy, milliy-madaniy, universal xususiyatlarini, chog‘ishtirma-tipologik munosabatlarini o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda komponent tahlil, tavsifiy-tahliliy, chog‘ishtirma-qiyosiy, analitik metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va xitoy tillaridagi maqollarning leksik-grammatik maqomini aniqlash mezonlari ularning tuzilishi, semantikasi, obrazlilik, didaktikligi kabi o‘zaro farqlovchi xususiyatlar tarkibini aniqlashtirish asosida dalillangan;

o‘zbekcha va xitoycha maqollarning fonetik xususiyatlari aniqlanib, ularni chog‘ishtirish natijasida fonetika nuqtayi nazaridan xitoycha maqollar asosan maqollarning semantikasini ohang, urg‘u, qofiyalar orqali ifodalashi, o‘zbek maqollarida asosan urg‘u va qofiya ishlatilishi ochib berilgan;

o‘zbekcha va xitoycha maqollardagi sinonimiya, antonimiya, gradunomiya, maqollarda so‘z tanlash, qo‘llashning o‘ziga xos yo‘llari aniqlanib, maqollarning o‘ziga xos semantik xususiyatlari ko‘rsatilgan, grammatika nuqtayi nazaridan, o‘zbek va xitoy maqollari sodda va qo‘shma gaplardan tuzilgan bo‘lsa-da, xitoy maqollarida murakkabroq jumlar ko‘p ishlatilishi, gap tuzilishi nuqtayi nazaridan xitoy maqollari murakkab bo‘lsa-da, uyg‘un intonatsiyaga egaligi, o‘zbek maqollarida ham sodda gaplardan ko‘ra qo‘shma gaplar ko‘p uchrashi aniqlangan;

o‘zbekcha va xitoycha maqollar o‘rtasidagi lisoniy-madaniy nomuvofiqliklar mazmuni ikki xalq tarixi, mentaliteti, madaniyati, har xil dinlar, geografik joylashuvi bilan bog‘liqligi kabi lisoniy-madaniy nomuvofiqliklarni belgilash asosida ochib berilib, o‘zbekcha va xitoycha maqollar o‘rtasidagi universalialar aniqlanib, ular semantik-struktur jihatdan chog‘ishtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va xitoy tillarida maqollar semantikasi va strukturasi bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlari va o‘ziga xos xususiyatlarining qiyosiy tahlili ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etishi sababli “Tilshunoslik nazariyasi”, “Qiyosiy leksikologiya”, “Qiyosiy uslubiyat”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Qiyosiy tipologiya”, “Madaniyatshunoslik” kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukamallashuviga yordam berishi asoslagan;

o‘zbek va xitoy tillaridagi maqollarning semantikasi va strukturasi, milliy-madaniy va universal xususiyatlarini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan metodikaning qardosh bo‘lmagan tillarga xos boshqa tipdagi maqollarini tadqiq qilishda foydalanish mumkinligi dalillangan;

maqollarning o‘ziga xos xususiyatlari madaniyatlararo muloqot jarayonida foydalanilishi va o‘rganilishida ishonchli manba bo‘lib xizmat qilishi dalillangan;

o‘zbek va xitoy tillaridagi maqollarning chog‘ishtirma tahlili natijalaridan o‘zbeklarga xitoychani, xitoylarga o‘zbekchani o‘rgatishda samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Muammoning aniq qo‘yilganligi, ishning o‘rganish obyektlari aniq belgilab olinganligi, o‘rganilgan materialning o‘zbek va xitoy tillari tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam berishi, ularning asosli ekanligi, til o‘qitish metodikasiga nazariy jihatdan mos kelishi, metodologik mukammalligi, chog‘ishtirma tahlilni amalga oshirishda mavjud isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqotda o‘zbek va xitoy tillaridagi maqollar lingvistik metodlar tatbiqida qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda tahlil qilingan va ularning lingvistik xususiyatlari atroflicha ochib berilgan hamda maqollarning komponent tarkibi aniqlangan, ularni qiyosiy-tipologik jihatdan chog‘ishtirish va tadqiq etish nazariyasini yanada boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ilmiy ishda erishilgan natijalardan O‘zbekiston va Xitoy OTMLarida o‘qitiladigan “Nazariy va amaliy grammatika”, “Qiyosiy tipologiya”, “Qiyosiy frazeologiya”, “Qiyosiy terminologiya”, “Lingvomadaniyatshunoslik” kabi fanlardan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda, ushbu fanlardan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar olib borishda, magistratura bosqichida “Lingvistik tadqiqot metodlari”, “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari”, “Frazeologiyaning dolzarb masalalari” kabi fanlardan maxsus kurslarni tashkil etishda, shuningdek, o‘zbek -xitoy, xitoy -o‘zbek ikki tilli maqollar lug‘atlarini tuzishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotni yozish jarayonida o‘zbekcha-xitoycha lug‘at tayyorlangan bo‘lib, bu lug‘atdan 3.2 mln dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi, shulardan, 3754 ta maqol joy olgan (lug‘atning umumiy sahifasi 3434 betdan iborat). Lug‘at juda katta hajmda bo‘lganligi tufayli uni dissertatsiyaga ilova qilishning iloji bo‘lmadi.

Dissertant O‘zbekistonga Xitoy korxonalarining sarmoya kiritishi bilan bog‘liq O‘zbekistonning 15 ta amaldagi qonunlari, qonunchilikning 1000 dan ortiq

moddalari, farmonlar va normativ-huquqiy hujjatlarini tarjima qilishda, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Sammiti, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining xalqaro ko‘rgazmalarida ko‘p marotaba tarjimon sifatida qatnashgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekcha va xitoycha maqollarni chog‘ishtirish bo‘yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar asosida:

nomlar zaxirasini yaratish uchun o‘zbek xalq maqollarida ifodalangan leksemalar xalqimiz hayotida muhim oziq-ovqat mahsuloti, kiyim-kechak manbai sifatida katta rol o‘ynagani sababli kundalik yashash tarzi, hayot kechirishi, urf-odat, marosimlari shakllanishiga ma‘lum darajada asos bo‘lganligi, mazkur maqollarda bugungi kunda unutilgan yoki unutilayotgan milliy o‘yin, udum, an‘ananlarimiz saqlanib kelayotganligi tahliliga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2019–2022-yillarda bajarilgan A-OT-2019-10 raqamli “O‘zbek tilida neymning: me‘yoriy-huquqiy asoslarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 3-martdagi 01/4-472-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha maqollarda bugungi kunda unutilgan yoki unutilayotgan milliy o‘yin, udum, an‘ananlarimizga doir tahliliy materiallar bilan boyitilgan;

o‘zbek va xitoy tillaridagi maqollarda odamning ijobiy yoki salbiy baho ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladigan va adresatga xos harakatlar, fikrlash yoki baholash kategoriyalari doirasidagi ma‘no markerlari; maqollarda insonni fazilatlar va faoliyat obrazining mezoniga ko‘ra baholash, xususan, ma‘noning ikki tomonlilik xususiyatiga ega bo‘lgan axloqiy, estetik, intellektual, pragmatik baholash turlariga ajratilgan terminlarga oid ilmiy ma‘lumotlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017–2018-yillarda bajarilgan OT-A1-018 raqamli “O‘zbek tili va uning tarjimasi bilan bog‘liq elektron va bank-moliya terminlarining ko‘p tilli lug‘atlarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 3-martdagi 01/4-473-son ma‘lumotnomasi). Natijada maqollar u yoki bu xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini va olamning lisoniy manzarasini aks ettiruvchi asosiy namunalarni qo‘llash orqali xalq mentalitetini aks ettirishi masalalari o‘z yechimini topgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 3 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 13 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika, 10 tasi xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari, yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, obyekti va predmeti, tadqiqot natijalarining ishonchiligi, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**O‘zbek va xitoy tillarida maqollarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularni tadqiq qilish yo‘nalishlari**” deb nomlangan.

Xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy tajribasidan kelib chiqqan hikmatli so‘zlar o‘zbek tilida “maqol”, tojiklarda “zarbulmasal”, ruslarda “пословица”, arablarda “naql”, turklarda “ataso‘zu” deb nomlanadi. Hajman qisqa, ammo mazmunan keng tushunchani anglatuvchi hikmatli so‘zlar turli mavzularni qamrab oladi.

M.Murodovanning “Folklor va etnografiya” asarida ta‘kidlanishicha: “Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janridir. Maqol xalqning ko‘p asrlar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to‘plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo‘lgan og‘zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol atamasi arabcha – «qavlun» – gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan, u aytib yuriladigan ibora, ifodalardir. Maqol har bir xalqning og‘zaki ijodida uchraydigan janrdir. Doston, ertak, afsona va rivoyatlar, latiflar voqelikni hikoya tarzida aks ettirsa, maqollar xalqning ana shu voqelikni xulosalar, hukmlar orqali ifodalaydi. Hajman ixcham bo‘lgan maqolda bayoni dostonlarga teng bo‘lgan voqealar mujassamlangan. Maqolda fikr aniq, tugal xulosa, lo‘nda hukm tarzida ifodalanadi”⁸.

Mavjud adabiyotlarda o‘zbek maqollarining kelib chiqishi, tarkibiy shakli, semantik mazmuni, uslubiy va pragmatik vazifasiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatilgan⁹. Ularda quyidagi xususiyatlar jamlanganligi ta‘kidlanadi:

1. Turg‘unlik. Maqollarning boshqa iboralardan farqi shundaki, ularda qoliqlanganlik darajasi yuqoriroq bo‘lib, tasdiqlash xususiyati kuchliroqdir.

2. Yaxlitlik. Yaxlitlik maqolning tarkibiy va ma‘no jihatlaridan yaxlitligini bildiradi. Tarkibiy jihatdan maqol bir jumla bo‘lib, ba‘zida ba‘zi tarkibiy qismlarini tushirib qoldirish mumkin bo‘lsa-da, jumlaning tarkibi o‘zgarmaydi.

3. G‘oyaviylik. Maqollar xalq donoligining ifodasi, mehnatkash odamlarning uzoq yillik hayoti va turmush tajribasining timsoli bo‘lib, boy bilim va xalq mafkurasini aks ettirishi bilan xalqqa yetkaziladigan g‘oyalar jamlanmasi hamdir.

⁸ Муродова М. Фольклор ва этнография (электрон ўқув қўлланма). 2006. <https://library.samdu.uz/files/>

⁹ Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари. – Тошкент, 2019. – Б.5.

4. Musiqiylik. O‘zbek maqollari musiqiylik xususiyatga ham ega. Ko‘p jumlar ravn bo‘lib, fonologik jihatdan uyg‘un va uzviylik ritmiga ega bo‘ladi va xalq tiliga tez o‘rnashadi.

O‘zbek tilidagi maqollar yuqoridagi xususiyatlarining tahliliga ko‘ra, tilshunoslik (leksikologiya), xalq og‘zaki ijodi, adabiyotshunoslik va boshqa fanlarning tadqiqot obyektiga aylangan.

Xitoy tillida maqol tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda ko‘rinadi. “Zhan guo sulalisi (战国) siyosati: Hanning birinchi siyosati” (战国策·韩策一) asarida shunday deyiladi: “Siyosat bilan shug‘ullanuvchi odamlar maqollarga quloq tutadi, u zodagonlarga quloq solishi shart emas. Shu sabab, oldingi hukmdorlar maqollarga quloq tutishgan, siz ham kaminaning fikriga quloq tutasiz, deb umid qilaman”¹⁰.

“Zamonaviy xitoy tilining izohli lug‘ati” (现代汉语规范词典)da maqolga berilgan ta‘rif quyidagicha: “Maqol idiomaning bir turi bo‘lib, xalq orasida keng tarqalgan o‘zgarmas gap hisoblanadi, qisqa va oddiy til orqali chuqur ma‘noni aks ettiradi va u xalq hayotiy tajribasining duridir”¹¹.

Vang Dechun (王德春) “Xitoy-ingliz maqollari va madaniyati” 《汉英谚语与文化》 asarida maqollarni “nisbatan to‘liq ma‘noga ega bo‘lgan turg‘un jumlar” deb hisoblagan¹².

Mavjud adabiyotlarda¹³ xitoy tilidagi maqollarning xususiyatlari quyidagicha ko‘rsatiladi:

1. Lo‘ndalik. Maqollardagi lo‘ndalik “lo‘nda va chuqur ma‘noli” likda aks etib, kam sonli so‘zlar orqali ma‘no va his-tuyg‘ularni ifoda etishga imkon beradi va shu bilan uzun gaplarning hosil bo‘lishini oldini oladi. Bunday lo‘ndalik gap tarkibida namoyon bo‘lib, maqollarning gap tuzilishi tartibli, uzunligi esa nisbatan qisqa bo‘ladi.

2. Og‘zaki nutqqa xoslik. Maqollarning aksariyati xalq tomonidan tuzilgan bo‘lib, mehnatkash xalq donoligining namunasidir. Ularning aksariyati xalqning biron-bir narsa haqidagi xulosasi, hukmi bo‘lib, u asosan og‘zaki nutqda namoyon bo‘ladi.

3. Chiroyli ohangdorlik. Xitoy maqollarining aksariyati odatda to‘rt dan o‘ntagacha ieroglifdan iborat bo‘lib, ulardagi vazn va qofiya juda kuchli bo‘ladi. Ularda ohangga katta e‘tibor qaratilib, she‘r misralarining vazniga o‘xshash bo‘ladi.

4. Majozilik. Majoziy so‘zlarning maqsadi tilni yanada jonli, jozibali va jozibador qilishdan iboratdir. Bunda tilning badiiyligiga e‘tibor qaratiladi. Ma‘no va

10 刘向, 战国策·韩策一, 中华书局, 北京, 1999年11月, 62 (Liu Xiang. Urushayotgan davlatlar strategiyasi. Xan Ceyi. – Pekin: Zhonghua Book Company, 1999, noyabr, 62-b.).

11 李行健, 现代汉语规范词典 (第三版), 外语教学与研究出版社, 上海, 2014年06月, 575页。(Li Xingjian. Zamonaviy Xitoy standart lug‘ati (uchinchi nashr). – Shanxay: Chet tillarni o‘qitish va tadqiqot nashriyoti, 2014, iyun, 575- b.).

12 王德春, 汉英谚语与文化, 上海外语与教育出版社, 2003年3月, 303页。(Vang Dechun. Xitoy-ingliz maqollari madaniyatini o‘rganish. – Shanxay: Shanxay xorijiy tillar va ta‘lim nashriyoti, 2003, mart, 303-b.).

13 温端政, 现代汉语谚语词典, 商务印书馆, 2009年12月, 307页。(Ven Duanzheng. Zamonaviy Xitoy maqollari lug‘ati. – Pekin: Shangwu nashriyoti, 2009, dekabr, 307- b.).

his-tuyg'ular metafora, antiteza, mubolag'a, qiyoslash, so'z o'yini (ikki xil ma'noli so'zlar), jonlantirish, metonimiya va b. orqali ifodalanadi.

O'zbekcha maqollar O'zbekistondagi tilshunoslar tomonidan ikki aspektda tadqiq qilinganligini kuzatish mumkin: 1. Maqollar o'zbek tili nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. 2. O'zbekcha maqollar boshqa qardosh/noqardosh tillardagi maqollar bilan qiyoslangan/chog'ishtirilgan.

Maqollar o'zbek tili nuqtayi nazaridan tahlil qilingan ishlar. O'zbek tilshunosligida maqolning lingvistik xususiyatlarini ilmiy o'rganish X.Abdurahmonovning nomzodlik dissertatsiyasi¹⁴dan boshlangan, deyish mumkin. X.Abdurahmonovning doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilida maqol va matallarning sintaktik qurilishi, maqollardagi gaplar va so'z birikmalarining asosiy ko'rinishlari, ularning morfologik, sintaktik, ba'zi ma'noviy-uslubiy xususiyatlari keng yoritilgan¹⁵.

M.Sadriiddinova¹⁶, B.Jo'rayeva¹⁷, D.A.Tosheva¹⁸, D.Turdaliyeva¹⁹, Sh.Sh.Qalandarov²⁰, I.M.Mirzaaliyev²¹, G.Komilova²² larning ishlarida maqollar turli lisoniy jihatlariga ko'ra taqqiq qilingan.

O'zbekcha maqollar boshqa qardosh/noqardosh tillardagi maqollar bilan qiyoslangan/ chog'ishtirilgan ishlar. Bu yo'nalishda ham bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, bu ishlarda o'zbekcha maqollar boshqa qardosh/noqardosh tillardagi maqollar bilan qiyoslangan/ chog'ishtirilgan holda ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochishga erishilgan. Bular P.Bakirov²³, G.Ergasheva²⁴, O.Uralova²⁵,

¹⁴Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: АН УзССР, 1964. – 18 с.

¹⁵Абдурахмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1977. – 48 с.

¹⁶ Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 18 с.

¹⁷Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2002; Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док... (DSc) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. -73 б.

¹⁸Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. фалс. док (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017.

¹⁹Турдалиева Д.Т. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фан. фалс. док (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2018. – 144 б.

²⁰Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси. Филол. фан. фалс. док (PhD)... дисс. автореф. – Фарғона, 2019.

²¹ирзаалиев И.М. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси (“Девону луғати-т-турк” материали мисолида). Филол. фан. фалс. док. (PhD)...дисс. автореф. – Тошкент, 2020.

²²Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Филол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 50 б.

²³Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 287 с.

²⁴Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.

²⁵Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида “оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. – Самарқанд, 2021. – 144 б.

M.Temirova²⁶, R.Madjidova²⁷, Z.R.Narmuratovlarning ishlaridir²⁸. Shuningdek, o‘zbekcha maqollarning noqardosh tillar bilan chog‘ishtirilgan tahlili yuzasidan bir nechta ilmiy maqolalar ham e‘lon qilingan, e‘lon qilinmoqda²⁹.

Xitoyda maqollar 5000 yildan ortiq tarixga ega. Ma‘lumotlarga ko‘ra, xitoy maqollari bo‘yicha tadqiqotlar 4 davrga bo‘lingan:

1) XX asr boshlaridan Yangi Xitoy tashkil topgunga qadar maqollarni o‘rganish; 2) Yangi Xitoy tashkil topganidan to islohotgacha bo‘lgan davrda maqollar bo‘yicha tadqiqotlar; 3) XXI asrgacha islohot va ochilishdan keyingi maqollarni o‘rganish; 4) XXI asrda maqollar ustida olib borilgan tadqiqotlar³⁰.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbek va xitoy maqollari fonetik, semantik, grammatik xususiyatlarining chog‘ishtirma tadqiqi”** deb nomlanib, unda o‘zbek va xitoy maqollari fonetik, semantik, grammatik xususiyatlarining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Xitoy tilida fonetik ritm, asosan, uch jihatdan namoyon bo‘ladi: ohang (声调), urg‘u (重音) va qofiya (押韵). Xitoy va o‘zbek tillari ikki xil fonetik tizimga mansub bo‘lib, so‘zlarning bo‘g‘in tarkibi va xususiyatlari ham o‘zaro har xil bo‘lgani sabab o‘ziga xos maxsus tarkibiy shakllarni hosil qiladi. Xitoy tili ohanglarga ega til bo‘lib, undagi to‘rt ohang nafaqat so‘zlarning ma‘nolarini ajratadi, balki bo‘g‘inlarni balandligini burish va o‘zgartirish vazifasini ham bajaradi. Masalan: Tái shàng yī fēnzhōng, tái xià shí nián gōng 台上一分钟, 台下十年功 (ABBAA, ABAAA) (*Sahnada bir daqiqalik chiqish uchun o‘n yillik sahnadan tashqari mashg‘ulotlar kerak bo‘ladi*). Xitoy maqollarining ohang shakllari juda boy bo‘lsa ham, ular ko‘pincha o‘zgarishi mumkin. Masalan: Rén wú qiān rì hǎo, huā wú bǎi rì hóng 人无千日好, 花无百日红 (AAABB, AABBA) (*Odamlarga har doim ham yaxshi bo‘lmaydi, gullar har doim ham gullamaydi*).

O‘zbek tilida ohang bo‘lmasa-da, unda urg‘u bor. Shuning uchun, o‘zbek maqollarida bo‘g‘in o‘zgarishining tarkibiy shaklini hosil qilish uchun bevosita urg‘udan foydalaniladi. Masalan: *Har narsaning vaqti bor, har bir qizning baxti bor* (每样东西都有时限, 每个姑娘都有自己的幸福). *Yaxshi bo‘lsa – bola, yomon bo‘lsa – bala* (好的是孩子, 坏的是麻烦).

²⁶ Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018. – 166 б.

²⁷ Маджидова Р. Антропоцентриқ мақолларнинг аксиологик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида). Филол. фан. доктори (DSc)... дисс. автореф. – Фарғона, 2020.

²⁸ Нармуратов З.Р. Инглиз ва ўзбек тилларида “таълим, илм” концептларига оид паремаларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Термиз, 2022. -51 б.

²⁹ Жумабоева Ж., Абдуллаева Н. Градуоним компонентли ўзбек халқ мақоллари ва уларнинг инглиз тилидаги муқобиллари // Хорижий филология. №4, 2017. – Б.30-33; Абдуллаева Н. Ўзбек ва инглиз халқ мақолларида макроградуонимия // An international scientific and practical online conference on the topic tsul international conference on teaching foreign languages (tsul icon - flt). Foreign languages department. – Tashkent, 2021; Мадалов Н.Э. Ўзбек тилшунослигида мақолларнинг лингвистик тадқиқи // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 11 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1; Мадалов Н.Э. Инглиз ва ўзбек тилларидаги оддий табиат ходисалари билан боғлиқ мақолларнинг чоғиштирма таҳлили // Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 1 | 2023 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1. va b.

³⁰ Bu masala dissertatsiyada to‘liq yoritilgan.

Xitoy tili morfem yozuvidir, ya'ni bir bo'g'in bir xitoycha ieroglif yoki morfema hisoblanadi. Bo'g'inlardagi fonemalar biroz farq qilsa-da, ular taxminan bir xil uzunlikda bo'ladi. Shuning uchun, vazni tartibli, o'zaro mutanosib va uyg'un tarkibni shakllantirish oson. O'zbek tili ko'p bo'g'inli til bo'lib, 2-4 bo'g'indan iborat so'zlar ko'p. O'zbek tili urg'uning o'zgarishi orqali maqollarning ma'nosini ifodalab, bunday tuzilgan jumlar jozibali va tushunarli bo'ladi.

Dissertatsiyada o'zbek va xitoy maqollari fonetik xususiyatlarini chog'ishtirish urg'u va qofiya orqali ham tahlil qilindi.

O'zbek va xitoy maqollarining leksik-semantik xususiyatlari chog'ishtirish tahlili o'zbekcha va xitoycha maqollarning LMG, o'zbekcha va xitoycha maqollar o'rtasida sinonimiya, antonimiya, graduonimiya, o'zbekcha va xitoycha maqollarda so'z tanlash masalalari: so'zlashuv uslubiga xos so'zlarni tanlash, tarixiy- an'anaviy so'zlarni qo'llash kabilarning tahlili orqali ko'rib chiqildi.

Ishda o'zbekcha va xitoycha maqollarning quyidagi LMG borligi ko'rsatildi:

O'zbekcha maqollarning LMG

“Vatan va vatanparvarlik haqida maqollar”; “Jamoatchilik va xudbinlik haqida maqollar”; “Mehnatsevarlik va ishyoqmaslik haqida maqollar”; “Halollik va tekinxorlik haqida maqollar”; “To'g'rilik va egrilik haqida maqollar”; “Yaxshilik va yomonlik haqida maqollar”; “Yaxshi so'z va yomon so'z haqida maqollar”; “Adolat, insof va insofsizlik haqida maqollar”; “Do'stlik va dushmanlik haqida maqollar”; “Tinchlik va notinchlik haqida maqollar”; “Botirlik va qo'rqoqlik haqida maqollar”; “Tenglik va tengsizlik haqida maqollar”; “Mardlik va nomardlik haqida maqollar”; “Donolik va nodonlik haqida maqollar”; “Ilm, kasb-hunar va ilmsizlik haqida maqollar”; “Tarbiya va odat haqida maqollar”; “Odob va odobsizlik haqida maqollar”; “Mehmon va mehmondo'stlik haqida maqollar”; “Saxiylik va baxillik haqida maqollar”; “Go'zallik va xunuklik haqida maqollar”; “Kamtarlik va manmanlik haqida maqollar”; “Baxt, omad va baxtsizlik haqida maqollar”; “Epchillik va noshudlik haqida maqollar”; “To'g'ri so'z va yolg'onchilik haqida maqollar”; “Sabr-qanoat va sabrsizlik haqida maqollar”; “Mehr-oqibat va oqibatsizlik haqida maqollar”; “Qadr-qimmat va qadrsizlik haqida maqollar”; “Muhabbat va bevafoqlik haqida maqollar”; “Oila va qo'shnichilik haqida maqollar”; “Qarindosh-urug'chilik va begonalik haqida maqollar”; “Farzand va farzandsizlik haqida maqollar”; “Tajribakorlik va kaltabinlik haqida maqollar”; “Ta'magirlik va ochko'zlik haqida maqollar”; “Ta'magirlik va ochko'zlik haqida maqollar” ba b³¹.

Xitoycha maqollarning LMG

“Qishloq xo'jaligi haqida maqollar”, “Sog'liqni saqlash, tibbiyot haqida maqollar”, “Jamiyat haqida maqollar”, “Ilm-fan haqida maqollar”, “Tajriba haqida maqollar”, “Ob-havo haqida maqollar”, “Iqlim haqida maqollar”, “Dehqonchilik haqida maqollar”, “Odob-axloq haqida maqollar”, “Do'stlashish haqida maqollar”, “Tarixiy personajlar haqida maqollar”, “Adabiyot va she'riyat haqida maqollar”, “Siyosat haqida maqollar”, “Iqtisod haqida maqollar”, “Harbiy ishlar haqida

³¹ **O'zbek xalq maqollari.** Tuzuvchilar: filologiya fanlari doktori, professor To'ra Mirzayev, filologiya fanlari doktori, professor Asqar Musoqulov, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqov. Ma'sul muharrir - filologiya fanlari nomzodi Sh.Turdimov. – Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2005.

maqollar”, “Madaniyat va ta’lim haqida maqollar”, “Ovqatlanish haqida maqollar”, “Sayohat haqida maqollar”, “Shakl va ruh haqida maqollar”, “So‘z va ish haqida maqollar”, “Iste’dod haqida maqollar”, “Din haqida maqollar”, “Sharait haqida maqollar” va b³².

O‘zbekcha maqollarning ichida sinonim bo‘lgan maqollar juda ko‘p uchraydi. Ya’ni bunda bitta maqolning ma’nosi ikkinchi maqoldagi ma’no bilan deyarli teng bo‘ladi, ammo ular uslubga xoslanganlik nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi: *Begona tuproq - devona tuproq* (陌生的土地是贫瘠的); *Kishi yurtida shoh bo‘lguncha, O‘z yurtida gado bo‘l* (除了自己的祖国有了国王, 否则自己的祖国也是贫穷的); *Yurtdan ketgan, yurtmonda, o‘tar hasrat, armonda* (离开祖国, 只能在梦里哀伤); *Vatangado bo‘lguncha, kafangado bo‘l. Vatandan yiroqlashgan – nomusdan o‘lar* 只要国家安全, 人们就安全, 远离祖国将光荣地死去); *Bekor o‘tirguncha, bekor ishla* (徒劳的工作, 就等于无所事事) *Bekordan xudo bezor* (老天也讨厌没用的人); *Bekorchidan – bemaza gap* (无所事事的人废话多); *Bekorchidan el bezor, so‘zidan ko‘ngil ozar.* (没用的人让人生厌, 言语间也没有好听的).

Xitoycha maqollarning ichida sinonim bo‘lgan maqollar ko‘p uchraydi. Ko‘pchilik maqollar qo‘shma gap shaklida bo‘ladi.

以眼还眼, 以牙还牙; 以子之矛, 攻子之盾; 以其人之道, 还治其人之身; 豆腐里挑刺; 鸡蛋里挑骨头; 横挑鼻子竖挑眼.

井水不犯河水; 你走你的阳关道, 我走我的独木桥; 大路朝边, 各走一边; 道不同不相为谋; 天下兴旺, 匹夫有责; 国之不兴, 何以家为? 国强民也富, 国破家必亡.

Maqollarda antonimiya holati ikki xil tartibda uchraydi: 1) maqol ichida ko‘pincha jumlar antonimlik hosil qiladi; 2) mustaqil maqollar zid ma’nodlilik kasb etadi. Quyidagi maqollar tarkibidagi so‘zlar antonimlik hosil qiladi. Ularni ham iikiga bo‘lish mumkin: 1. **Leksik antonimlar** maqol tarkibida qatnashib, maqolning birinchi qismi bilan ikkinchi qismi o‘rtasida antonim ma’no hosil qiladi: *Kishi yerida sulton bo‘lguncha, O‘z elingda cho‘pon bo‘l. Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, O‘z yurtida ulton bo‘l. Kishi yurtida shoh bo‘lguncha, O‘z yurtida gado bo‘l. Yurt qo‘risang, o‘sarsan, Qo‘rimasang, to‘zarsan. Yomon yigit yurt buzar. O‘zga yurtning qozisi bo‘lgandan, O‘z elingning tozisi bo‘l. O‘zga yurtning gulidan, O‘z yurtningning cho‘li yaxshi. Bizniki - xaltada, Sizniki - o‘rtada. Bir tupursa, ne bo‘lar, El tupursa, ko‘l bo‘lar. Birlashgan daryo bo‘lar, topib so‘zlar, Yomonlar qopib so‘zlar. Yaxshilik nur keltirar, Yomonlik - zulmat. Yaxshi bola - otaga quvvat, Yomon bola - uqubat.*

2. **Morfologik antonimlar** ham maqollar tarkibida kelib, maqolning birinchi qismi bilan ikkinchi qismi o‘rtasida zid ma’no hosil qiladi: *Birikkan kuch - kuch, Birikmagan kuch - puch. Birlashgan - o‘zar, Birlashmagan - to‘zar. Ishi borga bir kun hayit, Ishi yo‘qqa har kun hayit. Ishlagan yerni yashnatar, Ishlamagan —*

³² 厉振仪, 常用谚语分类词典, 上海, 上海大学出版社, 2000年6月 (Li Zhenyi. Xitoyning umumiy maqollarining tasniflangan lug‘ati. -Shanxay: Shanxay universiteti nashriyoti, 2000, iyun).

qaqshatar. Ishlagan osh tishlar, Ishlamagan tosh tishlar. Ishlagan tishlar, Ishlamagan kishnar. Yomon kun yaxshi bo'lar, Yomon odam yaxshi bo'lmas. Odobni beodobdan o'rgan va b.

